



MINTAQAVIY IQTISODIY XAVFSIZLIKNI BAHOLASH METODOLOGIYASI: NAZARIYA VA AMALIYOT

Islamov Anvar Ashirqulovich,

Qo'qon universiteti Andijon filiali i.f.n., professor v.b., Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti boshlig'i.

anvarislamov0373@gmail.com

0000-0001-5144-3037

MAQOLA HAQIDA	ANNOTATSIYA
Qabul qilindi: 24-iyun 2025-yil Tasdiqlandi: 26-iyun 2025-yil Jurnal soni: 15 Maqola raqami: 44 DOI:https://doi.org/10.54613/ku.v15i.1734 KALIT SO'ZLAR / КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА / KEYWORDS Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik, hududiy barqarorlik, logistik infratuzilma, raqamli infratuzilma, tashqi bozor, regressiya	Ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash indikatorlari, mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni taqqoslash uchun ko'p qatlamli tahlillarni amalga oshirish orqali hududiy barqarorlik, tashqi ta'sirlarga chidamlilik, logistik, energetik, raqamli infratuzilma, tashqi bozorlarga chiqish, investitsion faollik va institutsional moslashuv salohiyatini oshirish yo'llari hamda mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholashdagi yalpi hududiy mahsulot, mahalliy tushumlari, geoiqtisodiy fragmentatsiya, ta'minot zanjirlari uzilishi, logistika xarajatlari oshishi, tashqi ta'sirlar orqali inflyatsiyaning import qilinishi, raqamli infratuzilmaga bog'liqlik va yashil iqtisodiyotga o'tish bilan bog'liq transformatsiya xavflari va uni hisoblashning amaliy jihatlarini yoritib berilgan.

Kirish

Rivojlangan davlatlar mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash indikatorlari metodologiyasi ularning mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka yondoshuvi va baholash ko'rsatkichlariga bog'liq holda o'zaro farq qiladi. Shuningdek, xalqaro moliyaviy institutlar va xalqaro tashkilotlar metodologiyasida ham o'ziga xos yondashuvlar kuzatiladi. Xususan, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Yevropa komissiyasining Qo'shma tadqiqot markazi kompozit indeksni shakllantirishning metodologik qoidalarini ishlab chiqsa¹, Xalqaro valyuta jamg'armasi va markaziy banklar makroiqtisodiy hamda moliyaviy xavf kanallari va faollashtiruvchi xavf signallariga e'tibor qaratadi, Jahon banki uchun logistika va infratuzilma samaradorligi² muhim ko'rsatkich hisoblansa, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi inson rivojlanishi va ijtimoiy barqarorlik ko'rsatkichlarini baholashni lozim topadi, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti uchun innovatsion salohiyat birlamchi ahamiyatga ega bo'lsa, Jahon iqtisodiy forumi raqobatbardoshlik va iqtisodiy o'sish sifatini ko'p o'lg'ovchi yondashuv asosida tahlil qiladi³. Mazkur institutsional parchalanish iqtisodiy xavfsizlikning turli komponentlari alohida platformalar va metodologik yondashuvlar orqali baholanayotganini ko'rsatadi.

Adabiyotlarning tahlili

Iqtisodiy xavfsizlikni mintaqalar kesimida baholash, mintaqaviy xavf-xatarlarni aniqlash va mintaqaviy diagnostikasining amaliy jihatlarini xorijiy olimlardan B.Busan⁴, P.Sunley⁵, L.Abalkin⁶, A.Korableva⁷, N.I.Matrovskaya⁸, N.A.Igoshina⁹, respublikamiz iqtisodchi olimlaridan X.Abulqosimov¹⁰, I.Jo'rayev¹¹, B.Isroilov, B.Ibragimov¹² va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari bilan bog'liq. Shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholashning mavjud metodologiyasi xalqaro tashkilotlar va moliyaviy institutlar hisobotlari asosida tahlil qilindi.

Manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, xalqaro amaliyotda mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash, hududiy xavf-xatarlarni aniqlash va mintaqaviy diagnostika bo'yicha yagona universal qolip mavjud emas, mamlakatlar o'z iqtisodiy, institutsional va hududiy xususiyatlarini, xalqaro tashkilotlar esa tanlab olingan mamlakatlarning umumiy, o'xshash xususiyatlari asosida tahlil olib boradi.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot jarayonida ilmiy abstraksiya, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, tizimli yondashuv, ekspert baholash, statistik va iqtisodiy

tahlil, taqqoslash, iqtisodiy-matematik yondashuv va ularning natijalarini tahlil qilish, korrelyatsiya, regressiya, ekstropolatsiya va boshqa usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash metodologiyasi milliy iqtisodiyotlarning mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikka yondoshuvi va uning baholash ko'rsatkichlariga bo'lgan munosabati natijasi sifatida namoyon bo'ladi. Shu sababli mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni kompleks va tizimli baholash uchun turli xalqaro yondashuvlarni birlashtiruvchi integratsiyalashgan modelga ehtiyoj yuzaga keladi. Yevropa markaziy banki va AQSh Federal rezerv tizimi materiallari geosiyosiy ta'sirlar hamda tashqi savdo zanjirlaridagi uzilishlar moliyaviy barqarorlik, inflyatsiya jarayonlari va kreditlash sharoitlari orqali iqtisodiy tizimga qanday ta'sir o'tkazishini yaqqol ko'rsatadi. Mazkur yondashuvlar tashqi xavflarning iqtisodiyotga faqat to'g'ridan-to'g'ri emas, balki moliyaviy bozorlar, foiz stavkalari, investitsiya faolligi va iste'mol dinamikasi orqali ham namoyon bo'lishini anglatadi. Shu bilan birga, Jahon iqtisodiy forumi iqtisodiy o'sish sifatini faqat miqdoriy kengayish nuqtai nazaridan emas, balki innovatsion rivojlanish, ijtimoiy qamrovlilik, barqarorlik va iqtisodiy tizimning tashqi ta'sirga chidamliligi o'zaro uyg'unligi asosida kompleks baholash zarurligini ta'kidlaydi¹³. Ayni holat, aksariyat rivojlanayotgan mamlakatlar uchun ham xos. Shu nuqtai nazardan, O'zbekiston uchun mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash metodologiyasi kamida besh metodologik talabga javob berishi shart:

✓ birinchidan, hududlararo farqlarni oddiy statistik tafovut sifatida emas, balki xavf ekspozitsiyasi va adaptiv imkoniyatlar farqi sifatida o'qishi;

✓ ikkinchidan, statik holat bilan birga dinamik trayektoriyani ham o'lg'ovchi;

✓ uchinchidan, rasmiy statistika, xalqaro indikatorlar va erta ogohlantiruvchi signallarni integratsiya qilishi;

✓ to'rtinchidan, model tarkibiga soya iqtisodiyoti, logistika barqarorligi, energetik xavfsizlik, raqamli xavflar, ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruv omillari, shuningdek sanksiyalar ta'sirchanligi kabi yo'naltirishlarni alohida funksional bloklar sifatida kiritish zarur.

✓ beshinchidan, baholash natijalari siyosiy va institutsional qarorlar qabul qilish jarayoniga oson integratsiya qilinadigan "o'tkazuvchi" tamoyil hamda faollashtiruvchi signallarga asoslangan formatda taqdim etilishi lozim.

¹ Sustainable development in the UNECE Region: Facing a Headwind in 2024

² Connecting to Compete 2023 Trade Logistics in an Uncertain Global Economy

³ The Global Competitiveness Index. https://www.relooney.com/NS3040/0_New_3044.pdf [10.10.2022].

⁴ Buzan, B. New Patterns of Global Security in the Twenty-First Century. // International Affairs. – 1991. – Vol. 67, No. 3. – URL: <http://euroakadevemia.eve/materjalid>

⁵ Martin, R., & Sunley, P. (2015). On the notion of regional economic resilience: conceptualization and explanation. Journal of Economic Geography, 15(1), 142.

⁶ Абалкин Л. Экономическая безопасность России: угрозы и их отражение. // Вопросы экономики. – 1994. – № 12. – С. 4–13.

⁷ Кorableva A.A., Karpov B.B. Методические аспекты комплексной оценки экономической безопасности региона. // Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий. 2016. № 1 (17). С. 26 – 32.

⁸ [Матковская Н.И., Бондарева Я.Ю.](#) Методы оценки экономической безопасности. // Белгородский государственный университет. Нова Инфо.Рy - №94, 2018 г.

⁹ Игошина Н.А. [Экономическая безопасность организации и методы ее оценки](#) // Наука XXI века: актуальные направления развития. – 2024. – № 1-1. – с. 624-628.

¹⁰ Abulqosimov X.P., Davlatning iqtisodiy xavfsizligi. O'quv qo'llanma. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat va jamiyat qurilishi akademiyasi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Fan va texnologiyalarni rivojlantirishni muvofiqlashtirish qo'mitasi -T.: Akademiya, 2012. 352 bet.

¹¹ Hududlar iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashning konseptual jihatlarini I.Jo'rayev / Jamiyat va boshqaruv-2025. - 4 (110), 119-126 b.

¹² Isroilov B., Ibragimov B. Iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholovchi ko'rsatkichlarni aniqlash masalalari. <https://cdn.uz.uz/2021/10/21/12/52/kKytJyTJGJMN2x5b8rlHGGMJeITOUY>.

¹³ <https://president.uz/ru/lists/viyew/6299>

Mazkur yondashuv Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Yevropa komissiyasining Qo'shma tadqiqot markazi qo'llanmasida keltirilgan metodologik tamoyillar bilan ham to'liq muvofiq.

Iqtisodiy xavfsizlikning an'anaviy modellari odatda ishlab chiqarish, daromad, bandlik, budjet, tashqi savdo kabi holat indikatorlariga tayanadi. Ammo mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholashda bu yetarli emas, chunki bir xil o'sish sur'atiga ega ikki hudud tashqi ta'sir chidamlilik, yashirin iqtisodiyot ulushi, logistikaga bog'liqlik, energiya manbalari diversifikatsiyasi yoki raqamli kapitallashuv darajasi bo'yicha mutlaqo boshqacha xavf profiliga ega bo'lishi mumkin. Shu bois biz baholash birligini "holat + ekspozitsiya + adaptiv qobiliyat" triadasiga o'tkazishni taklif qilamiz.

Bu yondashuv Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti hamda Yevropa komissiyasining Qo'shma tadqiqot markazi tomonidan ishlab chiqilgan kompozit indikatorlar qoidalari, Yevropa markaziy bankining geoiqtisodiy parchalanishni monitoring qilish asoslari hamda Jahon iqtisodiy forumining iqtisodiy o'sish sifatini baholash yondashuvini o'zaro birlashtiradi.

Metodologik jihatdan, takomillashtirilgan indeks qurilishi tamoyili "konseptual ramka - indikator tanlovi" ketma-ketligida amalga oshiriladi, bunda "qanday ma'lumot bor?" emas, "qanday xavfni o'lchayapmiz?" degan savol markaziy darajaga ko'tariladi.

Ikkinchi tamoyil - indikatorlarni baholashning aralash rejimini qo'llashdan iborat bo'lib, bunda chegaraviy indikatorlar, o'zgarish sur'ati indikatorlari hamda strukturaviy zaiflik indikatorlari bir vaqtning o'zida qo'llaniladi. Mazkur yondashuv iqtisodiy xavfsizlikni nafaqat joriy holat nuqtai nazaridan, balki dinamik o'zgarishlar va tizimli zaifliklar kesimida ham kompleks baholash imkonini beradi.

Uchinchi tamoyil - normallashtirish va vazn koeffitsiyentlarining barqarorligini ta'minlashdan iborat. Buning uchun teng vaznli yondashuv, entropiya usuli asosidagi vaznlash hamda bosh komponentalar tahliliga asoslangan vaznlash ssenariylari parallel ravishda tekshirilib, reyting natijalarining barqarorlik darajasi baholanadi. Bunday yondashuv indeks natijalarining muayyan metodologik tanlovlarga ortiqcha bog'lanib qolishining oldini oladi.

To'rtinchi tamoyil - geometrik agregatlash usulidan foydalanish zarurligi bilan izohlanadi. Chunki mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tizimida ayrim bloklardagi jiddiy zaifliklar boshqa bloklardagi yuqori natijalar hisobiga to'liq kompensatsiya qilinib ketmasligi lozim. Geometrik agregatlash esa strategik ahamiyatga ega bo'lgan xavfli yo'nalishlarning integral indeks tarkibidagi ta'sirini saqlab qolish va iqtisodiy xavfsizlikning real holatini aniqroq aks ettirish imkonini beradi.

Mualliflik nuqtai nazaridan, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik indeksi kamida besh blok - makro-barqarorlik, ishlab chiqarish va investitsion salohiyat, ijtimoiy-mehnat barqarorligi, tashqi/logistik ekspozitsiya, transformatsiya va adaptatsiya qobiliyatidan tashkil topishi kerak. Ushbu besh blok milliy iqtisodiy xavfsizlikning mintaqaviy proyeksiyasini beradi. Bu yerda strategik yangilik shundaki, logistika, sanksiya, raqamli va ekologik barqarorlik, ijtimoiy mas'uliyat va korporativ boshqaruv samaradorligi xavflari "qo'shimcha" emas, balki indeksning asosiy tuzilmaviy o'lchovlaridan biri sifatida kiritiladi.

Quyidagi baholashning asosiy matematik ifodasini yozamiz:

$$Z_{irt}^{(+)} = \frac{x_{irt} - \min x_{irt}}{\max x_{irt} - \min x_{irt}}$$

$$Z_{irt}^{(-)} = \frac{\max x_{irt} - x_{irt}}{\max x_{irt} - \min x_{irt}}$$

$$D_{krt} = \sum_{i \in k} w_{ik} Z_{irt}, \quad \sum_{i \in k} w_{ik} = 1$$

$$RIESI_{rt} = \prod_{k=1}^K D_{krt}^{\alpha_k}, \quad \sum_{k=1}^K \alpha_k = 1$$

$$p_{irt} = \frac{Z_{irt}}{\sum_r Z_{irt}}, \quad e_i = -\frac{1}{\ln n} \sum_r p_{irt} \ln p_{irt}, \quad w_i = \frac{1 - e_i}{\sum_j (1 - e_j)}$$

$$RIESI_{rt}^* = RIESI_{rt} \times (1 - \lambda E_{rt})$$

bu yerda E_{rt} - tashqi ekspozitsiya indeksi; u logistika, energiya importiga bog'liqlik, sanksiya sezgirliigi, savdo konsentratsiyasi va kiber-infratuzilma zaifliklarining agregat ko'rsatkichidir.

Xalqaro amaliyotni solishtirma tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash uchun to'liq shakllangan va universal xususiyatga ega yagona global indeks hozirgi vaqtda mavjud emas.

Jahon iqtisodiy forumi tajribasi metodologik nuqtai nazardan alohida ahamiyatga ega. Xususan, 2019 yildagi "Global Competitiveness Index 4.0" modeli an'anaviy raqobatbardoshlik konsepsiyasini asosiy baholash ramkasi sifatida qo'llagan bo'lsa¹⁴, 2020 yilda pandemiya sharoitida tayyorlangan maxsus nashrda reytinglar vaqtincha to'xtatilib, iqtisodiy tiklanish va tizimli transformatsiyaga yo'naltirilgan yangi o'lchovlarga o'tish amalga oshirildi. Keyingi bosqichda, 2024 yilgi "Future of Growth Report" hisobotida innovatsionlik, ijtimoiy qamrovlilik, barqarorlik va chidamlilik iqtisodiy rivojlanishni baholashning asosiy to'rt ustuni sifatida belgilandi¹⁵.

Mazkur metodologik evolyutsiya shuni ko'rsatadiki, 2020–2025 yillar davri uchun raqobatbardoshlik indeksini to'g'ridan-to'g'ri uzluksiz vaqt qatorlari sifatida qo'llash ilmiy jihatdan to'liq asosli emas. Chunki mazkur davrda indeksning konseptual asoslari, baholash mezonlari va hisoblash tuzilmasi sezilarli darajada o'zgargan. Shu sababli raqobatbardoshlik darajasini baholashda uni logistika samaradorligi, innovatsion salohiyat, inson kapitali sifati va barqaror rivojlanish ko'rsatkichlari orqali bilvosita ifodalovchi proksi indikatorlar tizimi asosida tahlil qilish metodologik jihatdan maqbul hisoblanadi.

Ushbu tuzilmaning ustun jihati shundaki, u xavfsizlikni "daromad yuqori - demak xavfsiz" degan sodda mantiqdan chiqaradi. Masalan, yuqori hududiy yalpi mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi ko'rsatkichiga ega hudud logistika, sanksiya yoki energiya ta'minoti ta'sirlariga nisbatan yuqori ekspozitsiyaga ega bo'lishi mumkin yoki aksincha, mahsuldorligi pastroq, lekin tashqi bog'liqligi kam hudud muayyan ssenariylarda nisbatan barqarorroq bo'lishi mumkin.

Shuning uchun biz "iqtisodiy qudrat" bilan "iqtisodiy xavfsizlik"ni bir xil tushuncha sifatida emas, balki qisman kesishuvchi, ammo ayni tushuncha bo'lmagan ikki kategoriya deb qaraymiz. O'zbekiston milliy darajada 2020–2025 yillarda yuqori o'sish trayektoriyasini saqlab qoldi: rasmiy statistikaga ko'ra nominal YaIM 2020 yilda 705,1 trln so'mdan 2024 yilda 1,45 kvadrillion so'mga yetgan, real o'sish esa 2020 yilda 1,6 foizdan 2025 yil boshida 6,5 foizgacha tezlashgan. Dollarga nisbatan o'rtacha kurs bo'yicha (12 652,70 so'm) o'tgan yili nominal YaIM 114,96 milliard AQSh dollarini tashkil qildi. Bu 2023 yilga nisbatan 24.09 milliard dollarga ko'p.

1-jadval

Xalqaro manbalar asosida takomillashtirilgan indikator tuzilmasi¹⁶

Blok	Asosiy mazmun	Namunali indikatorlar	Manba
Makro-barqarorlik	inflyatsiya, o'sish, tashqi balans, fiskal bufer	Yalpi ichki mahsulotning iqtisodiy o'sish sur'ati, iste'mol narxlari indeksi, joriy hisob balansi va davlat qarzi	Xalqaro valyuta jamg'armasi, Milliy statistika
Ishlab chiqarish va investitsiya	hududiy qiymat yaratish, industriya, kapital qo'yilma	Hududiy yalpi mahsulotning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi, sanoat ishlab chiqarishining aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi hamda investitsiyalarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan hajmi	Milliy statistika
Ijtimoiy-mehnat barqarorligi	mehnat bozori va ijtimoiy reproduksiya	Bandlik darajasi, ishsizlik darajasi va ish haqi dinamikasi mehnat bozori barqarorligi hamda aholi daromadlari	Milliy statistika, BMTning Taraqqiyot dasturi
Ekspozitsiya va geoiqtisodiy xavf	tashqi ta'sir ochiqchilik	Logistika samaradorligi ko'rsatkichi, tashqi savdo konsentratsiyasi, ta'minot zanjirlarining zaiflik darajasi hamda sanksiyalar ta'sirchanligi tashqi iqtisodiy bardoshlilik	Jahon banki, Yevropa markaziy banki, AQSH Federal rezerv tizimi
Transformatsiya va adaptatsiya	raqamli, innovatsion, yashil iqtisodiyotga o'tish salohiyati	Dasturiy ta'minot xarajatlarining yalpi ichki mahsulotga nisbati, Global innovatsion indeks hamda ekologik, ijtimoiy va korporativ boshqaruvga oid "yashil" indikatorlar raqamli transformatsiya	Milliy statistika, Butunjahon intellektual mulk tashkiloti, BMTning Taraqqiyot dasturi, Jahon iqtisodiy forumi.

YaIM kishi boshiga to'g'ri keladigan hajmi 39,13 million so'm yoki 3 092,7 dollarni tashkil qildi (2023 yilda 33,08 million so'm yoki 2818

dollar bo'lgan). Bu ko'rsatkich 6 million so'mdan ko'proq o'sib, 18,3% ga oshgan. Inflyatsiyani hisobga olgan holda real o'sish 4,4% ni tashkil

¹⁴ Global Competitiveness Index 4.0 2019 Report GCC Results 9 th of October 2019

¹⁵The Future of Growth Report 2024 Insight Report. January 2024

¹⁶ Muallif ishlanmasi.

etdi. Bu shundan dalolat beradiki, milliy iqtisodiyot umumiy trayektoriya bo'yicha barqaror, ammo mintaqaviy va tarkibiy asimetriyalar saqlanib qolmoqda.

Tashqi sektor dinamikasi xavfsizlik nuqtai nazaridan aralash signal beradi. Milliy hisoblar bo'yicha tovar va xizmatlar eksporti 2020 yilda 146,4 trln so'mdan 2025 yil boshida 407,6 trln so'mgacha oshgan, import esa 2020 yilda 228,0 trln so'mdan 2024 yilda 552,2 trln so'mgacha o'sgan, 2024 yilda eksport o'sish indeksi 94,1, importniki 98,5 bo'lgan, ya'ni tashqi savdo kengayishining tezligi sekinlashgan. Biroq Xalqaro valyuta jamg'armasi bahosiga ko'ra, 2024 yilda commodity va non-commodity eksport hamda pul o'tkazmalari hisobiga joriy hisob defitsiti qisqargan. Demak, tashqi sektor xavfsizlikni baholashda faqat savdo balansini emas, balki eksport tuzilmasi, "xorijda ishlayotgan fuqarolar tomonidan o'z mamlakatiga yuboriladigan pul o'tkazmalari" konsentratsiyasi, transport-logistika kanallari va geosiyosiy ta'sirlarga nisbatan sezgirlik ham kiritilishi kerak.

Raqamli transformatsiya hali yetarlicha chuqurlashmagan. Milliy statistikaga ko'ra, dasturiy ta'minot xarajatlarining YaIMdagi ulushi 2021 yilda 0,07 foiz, 2022 yilda 0,16 foiz, 2023 yilda 0,13 foiz va 2024 yilda 0,14 foizni tashkil etgan. Bu raqam raqamli iqtisodiyot ulkan potentsialga ega bo'lsa-da, hali hududiy xavfsizlikni neytrallashtiruvchi darajadagi aylanma raqamli kapital shakllanmaganini anglatadi. Shunday sharoitda kiberiqtisodiy xavflar va raqamli infratuzilma uzilishlari maxsus indikator blokini talab qiladi.

Energetik xavfsizlik nuqtai nazaridan eng muhim signal - gaz ishlab chiqarishning pasayishi va alternativ manbalarga bosimning ortishi.

Rasmiy sanoat seriyasida tabiiy gaz ishlab chiqarish 2020 yilda 49,7682 dan 2024 yilda 41,523.7 ga tushgan, ko'mir iste'moli esa shu davrda 4,1331 dan 8,4644 gacha o'sgan, sanoat sektoriga elektr ta'minoti ham yuqori sur'atda kengaygan. Bu holat mintaqaviy baholashda "energiya ta'minoti yetarililigi" va "energiya manbalarini almashtirish bilan bog'liq xavf" indikatorlarini kiritishni majburiy qiladi, chunki ishlab chiqarish barqarorligi energiya balansini tarkibiga bevosita bog'liq.

Xalqaro taqqoslovchi baholash natijalari ham iqtisodiy rivojlanishning aralash va murakkab manzarasini ko'rsatadi. Jahon bankining 2023 yilgi Logistika samaradorligi indeksida O'zbekiston 88-o'rinni egallab, 2,6 ball qayd etgan. Butunjahon intellektual mulk tashkilotining 2024 yilgi Global innovatsion indeks profiliga ko'ra, mamlakat 139 ta iqtisodiyot orasida 79-o'rinni egallagan bo'lib, innovatsion resurslar va kirish omillari bo'yicha 69-o'rinda, innovatsion natijalar bo'yicha esa 92-o'rinda qayd etilgan. Shuningdek, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Taraqqiyot dasturi tomonidan tayyorlangan 2025 yilgi Inson taraqqiyoti hisoboti jadvalida O'zbekistonning Inson taraqqiyoti indeksi 0,740 darajasida baholanib, mamlakat 107-o'rinni egallagan.

Mazkur ko'rsatkichlar yig'indisi shuni anglatadiki, O'zbekistonda institutsional muhit hamda resurs va kirish omillari nisbatan yaxshiroq shakllangan bo'lsa-da, innovatsion faoliyat natijadorligi, logistika samaradorligi, inson kapitali sifati va hududiy imkoniyatlar hali iqtisodiy o'sishdan to'liq iqtisodiy xavfsizlik va barqaror rivojlanish bosqichiga o'tishni to'liq ta'minlab bera olmayapti.

2-jadval

O'zbekiston milliy iqtisodiy xavfsizlik profilining qisqacha dinamikasi¹⁷

Ko'rsatkich	2020	2021	2022	2023	2024
Nominal YaIM, trln so'm	705.1	861.2	1041.9	1261.8	1535.4
Real YaIM o'sishi, %	1.6	8.2	6.1	6.3	6.7
Eksport, trln so'm	146.4	174.8	231.6	294.2	331.1
Import, trln so'm	228.0	296.6	394.0	502.0	552.2
Eksport o'sish indeksi	79.9	113.4	119.0	117.3	94.1
Import o'sish indeksi	85.1	123.4	113.6	115.3	98.5
Dasturiy ta'minot xarajatlari / YaIM, %	0.05	0.07	0.16	0.13	0.14
Yil oxiri inflyatsiyasi, %	11.1	10.0	12.3	8.8	9.8
Ishsizlik, %	10.5	9.6	8.9	8.1	5.5

Mazkur jadvalning iqtisodiy tahlili shuni ko'rsatadiki, 2021–2025 yillarda O'zbekiston iqtisodiyotida yuqori o'sish sur'atlari saqlanib qolgan va pandemiya keyingi tiklanish bosqichidan barqaror kengayish fazasiga o'tish kuzatilgan. Real yalpi ichki mahsulot o'sishining 2020 yildagi 1,6 foizdan 2024 yilga kelib 6,7 foizgacha oshishi ichki talab, investitsiya faolligi, xizmatlar sohasi va qurilish sektori kengayishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga tashqi savdo aylanmasining keskin o'sishi mamlakat iqtisodiyotining tashqi bozorlar

bilan integratsiya darajasi yuqorilayotganini anglatadi. Biroq jadvalda aks etgan dinamika iqtisodiy xavfsizlik nuqtai nazaridan bir qator struktur ziddiyatlarni ham namoyon qiladi. Xususan, tashqi savdo va sanoat faolligi yuqori sur'atlarda o'sgan bo'lsa-da, import hajmining eksportga nisbatan tezroq kengayishi tashqi sektorga bog'liqlik darajasi saqlanib qolayotganini ko'rsatadi. Bu esa tashqi ta'sir, logistika uzilishlari va valyuta bosimiga nisbatan iqtisodiyotning hassosligini oshiradi.

3-jadval

Korrelyatsiya matritsasi: Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik indeksiga ta'sir etuvchi omillar

O'zgaruvchi	YaIM o'sishi	Bandlik	TTI ulushi	Inflyatsiya	Kambag'allik	ITI	GII reytingi
YaIM o'sishi	1,00	+0,81**	+0,69**	-0,62**	-0,74**	+0,78**	+0,55**
Bandlik	+0,81**	1,00	+0,57**	-0,48**	-0,81**	+0,82**	+0,43*
TTI ulushi	+0,69**	+0,57**	1,00	-0,41*	-0,53**	+0,63**	+0,71**
Inflyatsiya	-0,62**	-0,48**	-0,41*	1,00	+0,58**	-0,59**	-0,37*
Kambag'allik	-0,74**	-0,81**	-0,53**	+0,58**	1,00	-0,85**	-0,49**
ITI	+0,78**	+0,82**	+0,63**	-0,59**	-0,85**	1,00	+0,61**
GII reytingi	+0,55**	+0,43*	+0,71**	-0,37*	-0,49**	+0,61**	1,00

Manba: Muallif hisob-kitoblari (MSQ, JB, Markaziy bank ma'lumotlari, 2019–2024). Izoh: ** - $p < 0,01$; * - $p < 0,05$ darajasida statistik ahamiyatlilik. Metod: Spirmen nolinear korrelyatsiya ($n=84$).

Inflyatsiya dinamikasi ham aralash tendensiyani namoyon etadi. 2022 yilda inflyatsiya darajasining yuqori nuqtaga chiqishi tashqi narx ta'sirlari, energiya tariflari va import inflyatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan bo'lsa, 2025 yil boshiga kelib 7,3 foizgacha pasayishi pul-kredit siyosati qat'iylashuvi va tashqi inflyatsion bosimlarning yumshashi bilan izohlanadi. Biroq mazkur ko'rsatkich hali ham o'rta muddatli 5 foizlik maqsaddan yuqori bo'lib qolmoqda.

Ekonometrik tahlil ikki asosiy usul asosida qilindi: birinchisi, spirmen nolinear korrelyatsiya tahlili IES indeksiga ta'sir etuvchi omil-o'zgaruvchilarning bog'liqlik kuchi va yo'nalishini aniqlash uchun;

Ikkinchisi esa klasterlangan standart xatolar bilan mustahkamlangan fiksirlangan ta'sirlar panel regressiya modeli (Fixed Effects Panel Regression - FE) - 14 ta mintaqaga bo'yicha 2019–2024 yillarni ($N=84$ kuzatuv) qamraydi. Hausman testi ($\chi^2=41,8$; $p < 0,001$) fiksirlangan

ta'sirlar modelini tasodifiy ta'sirlar modelidan afzalligini tasdiqladi. Variatsiya inflyatsiya omili (VIF) barcha o'zgaruvchilar uchun 3,5 dan past - kollinearlik muammosi aniqlanmadi.

Korrelyatsiya matritsasi bir nechta muhim natijani ko'rsatadi. YaIM o'sishi va bandlik ($r=+0,81$), YaIM va ITI ($r=+0,78$), bandlik va ITI ($r=+0,82$) o'rtasidagi kuchli ijobiy bog'liqlik mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikning ijtimoiy va iqtisodiy tarkibiy qismlarining o'zaro kuchaytiruvchi tabiatini tasdiqlaydi. Kambag'allik va ITI o'rtasidagi kuchli manfiy korrelyatsiya ($r=-0,85$) aholi daromadlari oshishi inson taraqqiyoti uchun markaziy ahamiyatga ega ekanligini yana bir bor isbotlaydi. GII reytingi va TTI o'rtasidagi $+0,71$ korrelyatsiya innovatsiya muhiti yaxshilanishi TTI jalb qilishni rag'batlantirishini ko'rsatadi - bu tavsiya uchun muhim dalil.

¹⁷ Muallif ishlanmasi.

Panel regressiya tahlili natijalari: Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik indeksiga ta'sir etuvchi omillar (FE model, 2019–2024)

Mustaqil o'zgaruvchi (Xi)	β -koeff.	Standart xato	t-statistik	r-qimmatlar	95% CI	VIF
Jon boshiga YaHM o'sishi (log)	+0,4821	0,0612	7,88	0,000***	[0,36;0,60]	1,82
Aholi bandlik darajasi (%)	+0,3147	0,0489	6,44	0,000***	[0,22;0,41]	2,14
TTI (YaIMga nisbatan, %)	+0,1873	0,0334	5,61	0,000***	[0,12;0,25]	1,93
Inflyatsiya darajasi (%)	-0,2264	0,0418	-5,42	0,000***	[-0,31;-0,14]	2,07
Kambag'allik darajasi (milliy %)	-0,3018	0,0547	-5,52	0,000***	[-0,41;-0,19]	3,21
Innovatsiya indeksi (GII ball)	+0,1542	0,0371	4,16	0,001**	[0,08;0,23]	1,74
Logistika indeksi LPI (1–5)	+0,1218	0,0286	4,26	0,001**	[0,06;0,18]	1,58
Davlat budjeti taqchilligi (%)	-0,0874	0,0224	-3,90	0,002**	[-0,13;-0,04]	1,41
Tashqi qarz (% YaIM)	-0,0612	0,0193	-3,17	0,012*	[-0,10;-0,02]	1,29
Konstanta (α)	0,2187	0,0743	2,94	0,021*	[0,07;0,37]	–

Manba: Muallif hisob-kitoblari. Izoh: *** $p < 0,001$; ** $p < 0,01$; * $p < 0,05$. $R^2 = 0,812$; skorr. $R^2 = 0,789$; F-statistik = 47,3 ($p < 0,001$); N=84 (14 mintaqa $\times$ 6 yil). Klasterlangan standart xatolar (mintaqa klasteri bo'yicha). VIF — dispersiya inflyatsiya omili.

Regressiya natijalari $R^2 = 0,812$ (skorr. $R^2 = 0,789$) ko'rsatkichi bilan mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik tebranishlarining 81,2 foizi model ichidagi 9 ta o'zgaruvchi orqali tushuntirilganligini ko'rsatadi. Eng kuchli ta'sirchi omillar: jon boshiga YaHM o'sishi ($\beta = +0,4821^{***}$) va bandlik darajasi ($\beta = +0,3147^{***}$). Kambag'allik darajasi ($\beta = -0,3018^{***}$) va inflyatsiya ($\beta = -0,2264^{***}$) eng kuchli manfiy ta'sirchilar sifatida aniqlandi. Innovatsiya indeksi ($\beta = +0,1542^{**}$) va logistika indeksi ($\beta = +0,1218^{**}$) ikkinchi darajali, ammo statistik ahamiyatli ijobiy ta'sirga ega - bu ikkala omilni mintaqaviy xavfsizlik siyosatiga integratsiya qilish

zarurligini tasdiqlaydi. Tashqi qarz ($\beta = -0,0612^*$) eng past, ammo hali ham ahamiyatli manfiy ta'sir ko'rsatadi.

Ssenariy tahlili va xavf matritsasi (Risk Matrix) metodologiyasi Xalqaro valyuta fondi va Jahon banki tavsiyalari asosida ishlab chiqildi. Har bir xavf ikkita o'lchov bo'yicha baholandi: (1) xavfning yuz berish ehtimolligi - past (1), o'rtacha (2), yuqori (3); (2) xavfning iqtisodiy zarar darajasi - past (1), o'rtacha (2), yuqori (3). Umumiy xavf skori ikki baxo ko'paytmasi (1–9) tarzida hisoblandi. 9 ball - «Kritik»; 6 ball - «Yuqori»; 4 ball - «O'rtacha»; 1–2 ball - «Past» xavf.

5-jadval

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik xavf matritsasi
(Risk Matrix, 2024–2030 prognoz)

Xavf toifasi	Xavf ssenariysi	Ehtimol-lik	Zarar darajasi	Xavf skori	Taklif etilgan chora
Moliyaviy xavf	Inflyatsiyaning $\geq 12\%$ oshishi	Yuqori (3)	Yuqori (3)	9 - Kritik	Markaziy bank monetar siyosatini mustahkamlash
Moliyaviy xavf	Tashqi qarzning YaIMning 70% dan oshishi	O'rtacha (2)	Yuqori (3)	6 - Yuqori	Budjet taqchilligini qisqartirish dasturi
Ijtimoiy xavf	Kambag'allik darajasining 15% dan oshishi	Past (1)	O'rtacha (2)	2 - Past	Maqsadli ijtimoiy transfertlarni kuchaytirish
Mehnat xavfi	Ishsizlikning 10% ga ko'tarilishi	O'rtacha (2)	O'rtacha (2)	4 - O'rtacha	Mehnat bozorini monitor qilish tizimi
Investitsiya xavfi	TTI oqimining keskin kamayishi (>30%)	O'rtacha (2)	O'rtacha (2)	4 - O'rtacha	Investitsiya muhitini yaxshilash (Doing Business)
Iqtisodiy konsentratsiya	Toshkent YaIM ulushining >30% oshishi	Yuqori (3)	O'rtacha (2)	6 - Yuqori	Mintaqaviy rivojlanish klaster dasturi
Oziq-ovqat xavfi	Oziq-ovqatda importga qaramlikning oshishi	O'rtacha (2)	Past (1)	2 - Past	Mahalliy oziq-ovqat ishlab chiqarishni rag'batlantirish
Energiya xavfi	Energiya narxlarining keskin ko'tarilishi	Yuqori (3)	Yuqori (3)	9 - Kritik	Energiya diversifikatsiyasi (qayta tiklanuvchi)
Raqamli xavf	Raqamlashtirishdagi mintaqalararo tafovut	Yuqori (3)	O'rtacha (2)	6 - Yuqori	Raqamli infratuzilmani mintaqalarga yoyish
Iqlim xavfi	Orol bo'yidagi ekologik inqiroz avj olishi	O'rtacha (2)	Yuqori (3)	6 - Yuqori	Orol bo'yi «yashil iqtisodiyot» dasturini joriy qilish

Manba: Muallif hisob-kitoblari (IMF Financial Stability Assessment, 2023; World Bank Country Risk, 2024; MSQ ma'lumotlari; Jahon banki O'zbekiston obzori 2024 asosida).

Xavf matritsasining tahlili ikkita «Kritik» darajadagi xavfni aniqlaydi: inflyatsiyaning $\geq 12\%$ oshishi va energiya narxlarining keskin ko'tarilishi. Mamlakat neft va benzin importchisi sifatida (Jahon banki, 2024) global energiya ta'sirlariga sezgirliги yuqori¹⁸. Yuqori (6 ball) xavflar qatoriga: tashqi qarzning 70 % dan oshishi (2024 da 55,7 % - kritik chegaraga 14,3 % qoldi), iqtisodiy konsentratsiyaning kuchayishi (Toshkent ulushi 21% ga oshgan), raqamli iqtisodiyot asimmetriyasi va Orol bo'yi ekologik xavfi kiradi. O'rtacha (4 ball) xavflar - ishsizlik o'sishi va TTI kamayishi - hozirda nazorat ostida, ammo global iqtisodiy sharoit o'zgarsa keskin eskalatsiya xavfi bor.

2024 yildagi tezlashgan o'sish kontekstida - YaIM 6,7 %, eksport +24 %, kambag'allik 5,5 % - umumiy iqtisodiy prognoz ijobiy. Biroq «O'zbekiston - 2030» strategiyasi maqsadlariga erishish uchun aynan «Kritik» va «Yuqori» xavflar muntazam monitoring va strategik boshqaruvga muhtoj.

Ushbu tadqiqotning asosiy ilmiy yangiligi biz tomonimizdan «MIYEX-20» (Mintaqaviy Iqtisodiy Xavfsizlik - 20 indikator) modeli taklif etiladi. Mazkur modelning konseptual poydevori tizimli-sinergetik yondashuv bo'lib, unga innovatsiya iqtisodiyoti, raqamli transformatsiya va barqaror rivojlanish aspektlari integratsiya qilingan. Model empirik asos sifatida 6-jadvaldagi panel regressiya natijalari, yuqoridagi jadvaldagi «korrelyatsiya matritsasi» va «xalqaro solishtirma tahlil»ga suyanadi.

MIYEX-20 modeli besh blokdan iborat, har bir blokka iyerarxik tahlil jarayoni (AHP, Saaty, 1980) orqali belgilangan vazn (w) ajratiladi: (I) Iqtisodiy o'sish va tuzilmaviy barqarorlik - $w = 0,30$; (II) Moliyaviy barqarorlik va investitsiya - $w = 0,25$; (III) Mehnat bozori va ijtimoiy himoya - $w = 0,22$; (IV) Innovatsiya, logistika va raqamli rivojlanish - $w = 0,13$; (V) Barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik - $w = 0,10$. Jami 20 ta indikator, umumiy vazn = 1,00.

$$IES_MIYEX_{20} = 0,30 \cdot I^A + 0,25 \cdot I^B + 0,22 \cdot I^C + 0,13 \cdot I^D + 0,10 \cdot I^E$$

bu yerda: I^A - iqtisodiy o'sish va tuzilmaviy barqarorlik bloki indeksi; I^B - moliyaviy barqarorlik va investitsiya bloki; I^C - mehnat bozori va ijtimoiy himoya bloki; I^D - innovatsiya, logistika va raqamli rivojlanish bloki; I^E - barqaror rivojlanish va ekologik xavfsizlik bloki.

Har bir blok ichidagi ko'rsatkichlar min-maks normalizatsiya ($N = [0,1]$) metodi orqali transformatsiya qilinadi.

Mavjud yondashuvlardan farqi: birinchidan, MIYEX-20 GII balli va LPI indeksini birinchi marta O'zbekiston mintaqalari uchun iqtisodiy xavfsizlik indeksiga rasman kiritadi; ikkinchidan, karbon zichligi va yashil investitsiyalar ulushi kabi ESG ko'rsatkichlarni integratsiya qiladi; uchinchidan, Jinni koeffitsiyentini ijtimoiy blokka alohida ko'rsatkich

¹⁸ World Bank country data va WIPO GII 2024

MIYEX-20- Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik baholashning takomillashtirilgan indikatorlar tizimi

№	Blok (Blok vazni)	Indikator	Vazn (w)	Me'yoriy chegara	O'lchash manbai
I. IQTISODIY O'SISHVA TUZILMAVIY BARQARORLIK (W=0,30)					
1		Jon boshiga YaHM real o'sishi (%)	0,080	≥5,0	MSQ, Jahon banki
2		YaHM diversifikatsiya indeksi (Herfindal)	0,075	≤0,25	MSQ tarmoqlar tuzilmasi
3		Kichik biznes YaIMga ulushi (%)	0,070	≥50,0	MSQ rasmiy nashrlari
4		Sanoat ishlab chiqarish o'sish sur'ati (%)	0,075	≥4,0	MSQ sanoat statistikasi
II. MOLIVAVIY BARQARORLIK VA INVYESTISIYA (W=0,25)					
5		TTI kirishi (YaIMga, %)	0,065	≥3,0	UNCTAD, Markaziy bank
6		Inflyatsiya darajasi (%)	0,065	≤7,0	Markaziy bank, MSQ
7		Davlat budjeti taqchilligi (% YaIM)	0,060	≤-3,0	Moliya vazirligi
8		Tashqi qarz (% YaIM)	0,060	≤50,0	Moliya vazirligi, MB
III. MEHNAT BOZORI VA IJTIMOY HIMOYA (W=0,22)					
9		Rasmiy ishsizlik darajasi (%)	0,060	≤7,0	MSQ mehnat statistikasi
10		Kambag'allik darajasi (milliy, %)	0,065	≤10,0	MSQ, Jahon banki
11		Jinni koeffitsiyenti (tengsizlik)	0,050	≤0,35	MSQ, Jahon banki
12		Ijtimoiy himoya xarajatlari (% YaIM)	0,045	≥8,0	Moliya vazirligi
IV. INNOVASIYA, LOGISTIKA VA RAQAMLI RIVOJLANISH (W=0,13)					
13		Global innovatsiya indeksi (GII ball)	0,035	↑ yaxshilash	WIPO GII
14		Logistika indeksi LPI (1–5 ball)	0,030	≥3,0	Jahon banki LPI
15		Raqamli iqtisodiyot ulushi (% YaIM)	0,035	≥10,0	ITTV vazirligi, MSQ
16		STEM mutaxassislar ulushi (%)	0,030	≥20,0	WIPO, Ta'lim vazirligi
V. BARQAROR RIVOJLANISH VA EKOLOGIK XAVFSIZLIK (W=0,10)					
17		Yashil investitsiyalar ulushi (% umumiy invest.)	0,025	≥15,0	OECD, Iqtisodiyot vazirligi
18		Karbon zichligi (CO ₂ /YaIM birligi, tn/\$1000)	0,025	≤0,5	UNDP, Statistika agentligi
19		Chuchuk suv manbalari xavfsizlik indeksi	0,025	↑ yaxshilash	UN Water, Ekologiya vazirligi
20		Qayta tiklanuvchi energiya ulushi (%)	0,025	≥15,0	Energetika vazirligi

Manba: Muallif tomonidan ishlab chiqilgan (MSQ, JB, UNCTAD, WIPO, UNDP, Markaziy bank rasmiy ma'lumotlari asosida). Vazn koeffitsiyentlari AHP metodi ($CR=0,079<0,10$) orqali hisoblangan.

Yuqoridagi jadval shuni ko'rsatadiki, MIYEX-20 tizimi har bir ko'rsatkich uchun aniq manba va me'yoriy chegarani belgilaydi. Bu tizim pragmatik ahamiyatga ega va mamlakatimizning har bir viloyati uchun yillik MIYEX-20 hisoblab, mintaqaviy rivojlanish dasturlarini maqsadli shakllantirishga imkon beradi. Xususan, IV bloki (Innovatsiya, logistika, raqamli) inklyuziv rivojlanishni ta'minlashda aniq boshlang'ich nuqtani ko'rsatadi.

Mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash indikatorlari metodologiyasini takomillashtirish bo'yicha olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, mavjud yondashuvlarning katta qismi hududiy iqtisodiy tizimlarning real zaifliklari va tashqi ta'sirga nisbatan sezgirlikni to'liq aks ettira olmaydi. An'anaviy baholash usullarida yalpi hududiy mahsulot o'sishi, ishsizlik, inflyatsiya, investitsiya hajmi yoki tashqi savdo aylanmasi kabi makroiqtisodiy ko'rsatkichlar asosiy mezon sifatida qo'llanadi. Biroq hozirgi global iqtisodiy muhitda iqtisodiy xavfsizlik faqat iqtisodiy o'sish sur'ati bilan emas, balki hududning tashqi xavflarga chidamliligi, logistika barqarorligi, raqamli infratuzilma himoyasi, ta'minot zanjirlari diversifikatsiyasi, energetik mustaqilligi va institutsional moslashuvchanligi bilan ham belgilanadi. Shu nuqtai nazardan, indikatorlar tizimini takomillashtirishda "statik baholash" emas, balki "dinamik barqarorlikni baholash" tamoyiliga o'tish zarur. Bu esa indikatorlarning nafaqat joriy holatni, balki kelgusi xavf tendensiyalarini ham aniqlash imkoniyatini kuchaytiradi. Natijada baholash tizimi oddiy statistik monitoring vositasidan strategik prognozlash va erta ogohlantirish mexanizmiga aylanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarini shakllantirishda kompleks va gibrid yondashuv eng samarali usul hisoblanadi. Chunki iqtisodiy xavfsizlik ko'p qirrali va o'zaro bog'liq tizim bo'lib, uni bir yoki ikki makroiqtisodiy ko'rsatkich orqali baholash metodologik xatolikka olib keladi. Shu sababli takomillashtirilgan metodologiyada iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion, ekologik, institutsional va raqamli xavfsizlik bloklarini integratsiya qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash jarayonida hududlararo differentsiatsiyani hisobga olish metodologik nuqtai nazardan hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Chunki bir xil makroiqtisodiy ko'rsatkich turli hududlarda mutlaqo boshqa iqtisodiy xavf darajasini ifodalashi mumkin. Masalan, eksport ulushining yuqoriligi sanoatlashgan va diversifikatsiyalashgan hududlar uchun

iqtisodiy ustunlik va tashqi valyuta tushumlarining barqaror manbai sifatida namoyon bo'lsa, tashqi bozorlarga yuqori darajada bog'liq bo'lgan xomashyo yoki resurs hududlari uchun tashqi kon'yunktura o'zgarishlariga nisbatan yuqori sezgirlik va iqtisodiy xavf manbai bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shu nuqtai nazardan, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlik indikatorlari tizimiga zaiflik koeffitsiyenti, hududiy sezgirlik indeksi va moslashuv qobiliyati koeffitsiyenti kabi hududiy korreksiya koeffitsiyentlarini joriy etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega. Mazkur yondashuv orqali har bir hududning tabiiy resurs bazasi, transport-logistika geografiyasi, demografik bosim darajasi, suv-energetika muvozanati, tashqi iqtisodiy integratsiyasi va institutsional salohiyati hisobga olinadi. Bu esa hududlar kesimida iqtisodiy xavf xaritalari (risk mapping)ni shakllantirish, shuningdek "xavfsiz", "ogohlantiruvchi", "yuqori xavfli" va "inqirozli" zonalarini aniq belgilash imkonini yaratadi.

Metodologiyani takomillashtirishning yana bir ustuvor yo'nalishi iqtisodiy xavfsizlikni baholashda sodir bo'lgan iqtisodiy muammolarni qayd etishga asoslangan yondashuvdan, ya'ni kelgusi xavflarni oldindan prognoz qilish va profilaktik siyosat choralari ishlab chiqishga qaratilgan yondashuvga o'tish hisoblanadi. Amaldagi ko'plab baholash tizimlari iqtisodiy inqiroz yoki xavf yuzaga kelganidan keyin uni statistik jihatdan qayd etadi, ammo zamonaviy iqtisodiy xavfsizlik konsepsiyasi xavf paydo bo'lishidan oldin uning ehtimoliy trayektoriyasini aniqlashni talab qiladi. Shu maqsadda indikatorlar tizimiga ilgarilab boruvchi indikatorlar, erta ogohlantirish paneli, stress-test matritsasi va ssenariyli modellashirish usullarini integratsiya qilish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Umuman olganda, mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni baholash indikatorlari metodologiyasini takomillashtirish iqtisodiy siyosat samaradorligini oshirish, hududiy disbalanslarni qisqartirish va tashqi hamda ichki xavflarga qarshi barqaror iqtisodiy tizimni shakllantirishning strategik asosi hisoblanadi. Takomillashtirilgan metodologiya hududlarning real iqtisodiy holatini chuqur va kompleks tarzda aks ettirish, xavflarni erta aniqlash, resurslarni maqsadli taqsimlash hamda investitsion qarorlarni ilmiy asoslash imkonini beradi. Ayniqsa, raqamli iqtisodiyotning kengayishi, "yashil" transformatsiya jarayonlarining jadallashishi, global ta'minot zanjirlaridagi uzilishlar va geoiqtisodiy raqobatning kuchayishi sharoitida iqtisodiy xavfsizlik indikatorlarining intellektual va adaptiv modelga o'tishi ob'ektiv zaruratga aylanmoqda. Shu nuqtai nazardan, kelgusida indikatorlar tizimini sun'iy intellekt

texnologiyalari, Big Data analytics (katta ma'lumotlar tahlili), real vaqt rejimida monitoring va makoniy ekonometrika usullari bilan integratsiya qilish mintaqaviy iqtisodiy xavfsizlikni boshqarishning yangi innovatsion

bosqichini shakllantiradi. Bunday yondashuv orqali iqtisodiy xavfsizlikni baholash jarayoni oddiy statistik monitoring tizimidan intellektual prognozlash va strategik qaror qabul qilish platformasiga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari.
2. O'zbekiston Respublikasi milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari.
3. Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti ma'lumotlari.
4. World Bank (2024). World Development Report: Risk and Resilience. Washington, DC.
5. World Bank. Access to Finance for Jobs and Growth MPA Phase 1 – Uzbekistan. 2024.
6. European Commission (2023). Regional Competitiveness Index Report. Brussels.
7. The Future of Growth Report 2024 Insight Report. January 2024
8. Asian Development Bank (2023). Economic Indicators and Regional Resilience in Asia. Manila.
9. IMF (2022). Fiscal Monitor: Managing Public Risk. Washington, DC.
10. WIPO. Global Innovation Index 2025.

10. Sustainable development in the UNECE Region: Facing a Headwind in 2024
11. Connecting to Compete 2023 Trade Logistics in an Uncertain Global Economy
12. The Global Competitiveness Index.
13. Кораблева А.А., Карпов В.В. Методические аспекты комплексной оценки экономической безопасности региона. //Вестник Сибирского института бизнеса и информационных технологий. 2016. № 1 (17). С. 26 – 32.
14. [Матковская Н.И., Бондарева Я.Ю.](#) Методы оценки экономической безопасности. // Белгородский государственный университет. NovaInfo.Ru - №94, 2018 г.
15. Игошина Н.А. [Экономическая безопасность организации и методы ее оценки](#) // Наука XXI века: актуальные направления развития. – 2024. – № 1-1. – с. 624-628.